Shermuxammad Amonov

# AHMAD TABIBIY TURKIY DEVONLARI QO'LYOZMALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Shermuxammad AMONOV

# AHMAD TABIBIY TURKIY DEVONLARI QO'LYOZMALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

Monografiya

"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2023

UO'K: 894.375
KBK: 83.3(5O'z)
A 49

Amonov Shermuxammad
Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo'lyozmalarining qiyosiy-matniy tadqiqi [Matn] : monografiya / Sh. Amonov. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 258 b.

Ushbu monografiyada tarixiy, adabiy, ilmiy manbalardagi birlamchi ma'lumotlar asosida xorazmlik iste'dodli shoir Ahmad Tabibiy biografiyasiga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, respublikamiz hamda xorijiy kutubxona va fondlarda saqlanayotgan shoirning turkiy devonlari qo'lyozma nusxalari tadqiq etilib, ularning monografik tavsifi, shoir devonlari genealogiyasi va matn tarixi muammosi yoritilib, "Munisu-l-ushshoq" va "Hayratu-l-ushshoq" devonlari matniy jihatdan tahlil etilgan.

Monografiyada Tabibiyning ilm ahliga ma'lum bo'lmagan yangi asarlari, janrlar va mavzu ko'lami haqida ma'lumot berilgan, shoirning ilm-fan ahliga ma'lum bo'lmagan lirik asarlaridan namunalar [illegible] ilmiy iste'molga olib kirilgan, manbalar orasidagi matniy tafovutlar qiyosiy ochib berilgan, kelgusida shoir devonlari nashrini amalga oshirish yuzasidan vazifalar belgilab berilgan.

Monografiya filolog mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda oliy o'quv yurtlarining filologiya fakulteti magistratura va bakalavriat talabalariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**
**Nurboy JABBOROV** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**
**Dilshod G'AYIPOV** – filologiya fanlari doktori, professor
**Qo'ldosh PARDAYEV** – filologiya fanlari doktori, professor

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2023-yil 31-oktyabrdagi 3-sonli majlisi bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

**ISBN 978-9910-761-00-3**

**© Amonov Sh.**
**© "Bookmany print" nashriyoti, 2023.**

# KIRISH

Jahon xalqlari tarixida millat hayotida yorqin iz qoldirgan iste'dodli shaxslarning hayoti, faoliyatini o'rganish, ular qoldirgan adabiy meros manbalarini aniqlash, ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash orqali muallifning dastxat matni va unga yaqin variantini belgilash jarayoni muhim vazifalardandir. Zero, bunday matn muallifning adabiy-estetik tafakkuri taraqqiyoti, asar orqali aytmoqchi bo'lgan maqsad-muddaosini to'g'ri tushunish va talqin qilish, asarga davr kitobxonlarining munosabati, jamiyat va siyosiy qarashlarning ta'siri natijasida yuzaga kelgan matnning mohiyatini anglashda dolzarblik kasb etadi.

Dunyo matnshunosligi va adabiy manbashunosligida ma'lum bir millat ma'naviyati rivojida muhim ahamiyat kasb etgan adabiy asarning g'oyaviy asoslari, uni yaratishga turtki bo'lgan omillar, yaratilgan davri, mazkur asar bunyodga kelgan davr badiiy tafakkurining mahsuli sifatidagi qimmatini ko'rsatishga qaratilgan tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ilmiy ishlarning xulosalari, filologiya yo'nalishlaridan tashqari tarix, falsafa, pedagogika kabi yondosh sohalar uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan ilmiy qimmatga ega.

So'nggi yillarda vatanimizda ajdodlarimiz qoldirgan adabiy, ilmiy asarlarning mukammal matnini tiklash, ularda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalarni jamiyatga, eng avvalo, yosh avlodga yetkazishga katta e'tibor qaratilmoqda. "... avvalo xalqimizning yaratuvchilik dahosi bilan bunyod etilgan noyob merosni har tomonlama chuqur o'rganish, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg'otish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlar ko'zda tutilgan"[1]. Shu ma'noda Xorazm adabiy muhitining yirik vakili – Ahmad Tabibiy ham turkiy va fors-tojik tilida devonlar tartib bergan iste'dodli shoir, mohir tazkiranavis, tarjimon va tarixchi, o'zidan boy adabiy meros qoldirgan adib sifatida XIX asr oxiri – XX asr

---

[1] Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi / Xalq so'zi. – Toshkent, 2017-yil, 4-avgust.

**Shermuxammad Amonov**

# AHMAD TABIBIY TURKIY DEVONLARI QO'LYOZMALARINING QIYOSIY-MATNIY TADQIQI

**Monografiya**

**"Bookmany print" nashriyoti**
Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.
Bosishga ruxsat etildi: 08.11.2023.
"Times New Roman" garniturasi. Qog'oz bichimi: 60x84 $^1/_{16}$
Nashriyot bosma tabog'i 12,3. Shartli bosma taboq 12,7.
Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

"BOOKMANY PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru
t.me/ Bookmanyprint +998 99 180 97 10